

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamiy Amriddin Xamdamiy o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikrayeva Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI	212
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
BARQAROR RIVOJLANISH (ESG) PRINSIPLARINING KOMPANIYA BRENDI QIYMATI VA JOZIBADORLIGIGA TA'SIRI	217
Dilfuza Matisakova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	224
Raximova Lolaxon Avazovna	
MEHNAT INTIZOMINING KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	228
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TIBBIY TURIZM XIZMATLARINING EKONOMETRIK BAHOLANISHI.....	237
Yusupova Mexribon Uktamovna	
KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING RAQAMLI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH.....	245
Jo'rayev Po'latjon Komiljon o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA KICHIK BIZNES RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	251
Madaminova Feruza Tursunboy qizi	
YASHIL INVESTITSIYALARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	259
Raximova Shaxnoza Xamzayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TAYYOR MAHSULOTLAR EKSPORTINI RAG'BATLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TA'MINOT YO'LLARI.....	263
Esanov Yusufjon Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT: MOHIYATI, XUSUSIYATLARI VA O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	267
Sultonov Shahzod Shavkat o'g'li	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEXANIZMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	275
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA MILLIY EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING MEXANIZMLARI.....	281
Jumayeva Zamira Bustonovna	
MARKAZIY OSIYO UCHUN GEOSIYOSIY RISK (GPR) INDEKSINI ISHLAB CHIQISH	285
Qodirova Laylo Otabekovna	
BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODELI VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	289
Elmurod Sodiqov Shomurod o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	295
Abduvaliyev Zafar Mahmudovich	
AVTOMOBIL BUTLOVCHI QISMLAR ISHLAB CHIQARISHDA MAHALLIYLASHTIRISH VA TA'MINOT TARMOG'INI DIVERSIFIKATSIYALASH SAMARADORLIGI.....	301
Asadov Elyorbek Kandiayrovich	



INFRATUZILMA TADBIRKORLIK FAOLIYATI UCHUN ZARUR OBYEKTLAR, INSTITUTLAR, RESURLAR VA XIZMATLAR MAJMU'I.....	307
Rustamov Sultonbek Bekzadovich	
TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK PARADOKSLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	315
Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich	
"YASHIL" SANOAT SIYOSATINI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI.....	323
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI HISOBI VA ULARDAN FOYDALANISH USTIDAN ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH.....	330
Murtozayeva Xusnora Erkin qizi	
KORXONANING BREND EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Sa'dulloyev Habibullo Ibodullo o'g'li	
AGRAR VA SANOAT TARMOQLARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ORQALI YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	341
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING ENERGIYA TA'MINOTIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI.....	347
Jo'ramurodova Feruza Mardon qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH VA INVESTITSION STRATEGIYALARNI BOSHQARISH.....	353
Nazarova Nigora Yusufovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING AKADEMIK FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY-TASHKILY ASOSLARI.....	361
Raximbayev Musobek Komiljon o'g'li	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING SHAKLLANISH TENDENSIYALARI, HUDUDLARARO FISKAL TAFOVUTLAR VA HUDUDIY SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MUAMMALARINING TIZIMLI TAHLILI.....	367
Azamjonov Ulug'bek Usmonjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINING EVOLYUTSION RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI.....	377
Erxanov Muxammadjon Absayitovich	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	382
Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi	
MAMLAKATIMIZDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI.....	386
Qo'ziboev Umarbek Ulug'bekovich	
JUFT KORRELYATSIYA VA REGRESSIYA TAHLILI YORDAMIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI ANIQLASH.....	390
Muxtorova Shohida Negmat qizi	
TURISTIK INNOVASION LOYIHALARNI KRAUDFANDING ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH MODELI.....	397
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT AMALLARINING NATIJADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI MUAMMOLAR.....	403
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT AMALLARINING NATIJADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI MUAMMOLAR

Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqodchisi,

e-mail: x.yuldashev@hamkorbank.uz,

ORCID: 0009-0005-5512-8161

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarida ichki audit amallarining natijadorligiga ta'sir etuvchi muammolar tizimli tahlil qilingan va ular to'rt guruhga — tashkiliy, metodik, resurs hamda axborot va muloqot muammolariga ajratilgan. Tahlil natijasida muammolarning sezilarli qismi mustaqil sabablarga ega emasligi, balki bitta umumiy manbadan — audit topshirig'ining boshlanish nuqtasida uning parametrlari rasmiylashtirilmasligidan kelib chiqishi asoslangan. Muallif tomonidan ichki audit maqsadi, qamrovi, risk gipotezasi, mezonlari, amallari, dalillari, resurslari va natijalarini belgilovchi ichki audit topshirig'i pasporti ishlab chiqilgan. Pasport topshirig'ini boshlashdan oldin sakkiz blok bo'yicha to'ldiriladi, audit qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi va topshiriq yakunida yopiladi; uning har bir bloki muayyan muammo guruhini bartaraf etishga qaratilgan. Pasport doirasida topshiriq natijadorligini o'lchovchi besh ko'rsatkich tizimi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit, tijorat banki, audit topshirig'i, topshiriq pasporti, risk gipotezasi, audit qamrovi, baholash mezonlari, auditorlik dalillari, mehnat sarfi, natijadorlik, audit qo'mitasi, qamrovning kengayishi.

Abstract. The article provides a systematic analysis of the problems affecting the performance of internal audit procedures in commercial banks, grouping them into organisational, methodological, resource, and information and communication problems. The analysis establishes that a substantial part of these problems has no independent cause but originates from a single source — the failure to formalise the parameters of an audit engagement at its outset. The author develops an internal audit engagement passport that defines the objective, scope, risk hypothesis, criteria, procedures, evidence, resources and results of the engagement. The passport is completed before the engagement begins, approved by the audit committee and closed on completion; each of its eight blocks addresses a specific group of problems. A five-indicator system for measuring engagement performance is proposed.

Keywords: internal audit, commercial bank, audit engagement, engagement passport, risk hypothesis, audit scope, evaluation criteria, audit evidence, time budget, performance, audit committee, scope creep.

Аннотация. В статье системно проанализированы проблемы, влияющие на результативность процедур внутреннего аудита в коммерческих банках, и они разделены на четыре группы: организационные, методические, ресурсные, а также информационно-коммуникационные. Обосновано, что значительная часть этих проблем не имеет самостоятельных причин, а происходит из единого источника — отсутствия формализации параметров аудиторского задания в момент его начала. Автором разработан паспорт задания внутреннего аудита, определяющий цель, охват, рисковую гипотезу, критерии, процедуры, доказательства, ресурсы и результаты аудита.

Ключевые слова: внутренний аудит, коммерческий банк, аудиторское задание, паспорт задания, рискованная гипотеза, охват аудита, критерии оценки, аудиторские доказательства, результативность, аудиторский комитет.

KIRISH

Ichki audit funksiyasi bank uchun qanchalik foydali ekanini baholashda odatda uning yillik rejasi, shtati va hisobotlari tahlil qilinadi. Ammo funksiyaning haqiqiy natijasi boshqa darajada — alohida audit topshirig'i darajasida shakllanadi. Har bir topshiriq mustaqil loyihadir: uning o'z maqsadi, muddati, byudjeti va kutilayotgan natijasi bor. Agar bu parametrlar topshiriq boshlanishidan oldin belgilanmagan bo'lsa, topshiriq jarayonida boshqarib bo'lmaydigan holatga tushadi va uning yakuniy natijasi rejalashtirilgan emas, tasodifiy bo'ladi.



Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining "Banklarda ichki audit funksiyasi" (2012) hujjati ichki auditning yetarli resurs va vakolatga ega bo'lishini talab qiladi va bu talabni funksiya darajasida ham, alohida tekshiruv darajasida ham qo'yadi. Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (IIA) ning 2025-yil 9-yanvardan kuchga kirgan Ichki auditning global standartlari topshiriqni rejalashtirishga alohida tamoyil bag'ishlaydi: topshiriq maqsadi va qamrovi belgilanishi, baholash mezonlari aniqlanishi, resurslar rejalashtirilishi va ish dasturi hujjatlashtirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida bank ichki auditi Markaziy bank Boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi 3/2-son qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligida 2021-yil 7-mayda 3302-raqam bilan ro'yxatga olingan; 2026-yil 8-iyuldagi 19/14-son qarori tahririda) bilan tartibga solinadi. Nizom yillik rejani kuzatuv kengashi tasdiqlashini (8-band), byudjet yetarli va moslashuvchan bo'lishini (14-band), tekshiruv natijalari bo'yicha hisobot berilishini belgilaydi. Ayni paytda Nizom alohida topshiriq darajasida hech qanday rasmiylashtirish talabini qo'ymaydi: topshiriqning maqsadi, qamrovi, muddati va resursi qanday hujjatda qayd etilishi, kim tomonidan tasdiqlanishi va o'zgartirilishi mumkinligi belgilanmagan.

Amaliyotda bu bo'shliq quyidagicha namoyon bo'ladi. Topshiriq yillik rejadagi bir qatordan — masalan, "kredit jarayoni auditi, II chorak" degan yozuvdan boshlanadi. Auditor dala ishlariga kirishadi, jarayon bilan tanishadi, qiziqarli holatlarni aniqlaydi va tekshiruv chegaralari asta-sekin kengayadi. Muddat cho'ziladi, mehnat sarfi rejadan oshadi, hisobot esa dastlab ko'zda tutilgan savolga emas, yo'l-yo'lakay topilgan holatlarga bag'ishlanadi. Natijada uch narsa yuzaga keladi: topshiriq boshlangan savoliga javob berilmaydi; resurs sarfi asoslanmaydi; hisobot xulosalari kutilmagan bo'lgani uchun boshqaruv tomonidan mudofaa reaksiyasi bilan kutib olinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoning nazariy asoslari bir necha manbalar tizimi orqali shakllangan. Bazel qo'mitasining hujjatlari ichki auditning maqomi, resursi va qamroviga qo'yilgan talablarni belgilaydi; IIA standartlari topshiriqni rejalashtirish va bajarish tartibini tartibga soladi; COSO ning ichki nazorat modeli baholash mezonlari manbayi vazifasini o'taydi. Ilmiy adabiyotda ichki audit samaradorligining omillari Mihret va Yismaw, Arena va Azzone, Cohen va Sayag ishlarida tadqiq etilgan bo'lib, mualliflar boshqaruv qo'llab-quvvatlashi, auditorlar malakasi va tashkiliy sharoitni asosiy omillar sifatida ko'rsatgan. Lenz va Hahn empirik adabiyotni umumlashtirib, tadqiqotlarning asosiy qismi samaradorlik shart-sharoitlariga qaratilganini, jarayonning o'zi esa kam o'rganilganini qayd etgan. Sarens va De Beelde ichki audit va audit qo'mitasi o'rtasidagi muloqot sifatini auditning ta'sirchanligini belgilovchi omillardan biri sifatida aniqlagan.

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, samaradorlik omillari funksiya darajasida yetarlicha o'rganilgan, biroq alohida topshiriq darajasidagi boshqaruv vositalari — topshiriqni rasmiylashtirish, uning chegaralarini himoya qilish va natijasini o'lchash masalalari — mustaqil tadqiqot predmeti bo'lmagan. Aynan shu bo'shliq mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli-strukturaviy tahlil (muammolarni guruhlariga ajratish uchun), sabab-oqibat tahlili (muammolarning umumiy manbayini aniqlash uchun), qiyosiy-huquqiy tahlil (xalqaro standartlar va milliy me'yoriy hujjatlar talablarini solishtirish uchun), hujjat modellashirish (pasport tuzilmasini ishlab chiqish uchun) hamda ekspert baholash usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar

Ichki audit amallarining natijadorligiga ta'sir etuvchi muammolarni to'rt guruhga ajratish tahlil uchun eng ma'noli hisoblanadi, chunki har bir guruh o'ziga xos bartaraf etish vositasini talab qiladi (1-jadva).

1-jadval

Ichki audit amallari natijadorligiga ta'sir etuvchi muammolarning tavsifi

Guruh	Muammoning namoyon bo'lishi	Bevosita sababi	Natijadorlikka ta'siri
Tashkiliy	Topshiriq boshlanish va yakunlanish sanalari aniq emas; qamrov jarayonda kengayadi	Topshiriqni rasmiylashtiruvchi hujjat mavjud emas	Muddat cho'ziladi; bir vaqtda ochiq topshiriqlar soni ortadi
	Tekshirilayotgan bo'linma tekshiruvga tayyor emas, ma'lumot kechikib beriladi	Topshiriq oldindan e'lon qilinmaydi, kirish talablari kelishilmaydi	Dala ishlarining 20–30 % vaqti kutishga sarflanadi



Guruh	Muammoning namoyon bo'lishi	Bevosita sababi	Natijadorlikka ta'siri
Metodik	Nima izlanayotgani aniq emas; tekshiruv "umumiy tanishuv"ga aylanadi	Risk gipotezasi ilgari surilmaydi	Xulosalar sayoz; muhim risklar chetda qoladi
	Aniqlangan holat kamchilikmi yoki yo'qmi degan savolda bahs yuzaga keladi	Baholash mezonlari oldindan kelishilmaydi	Hisobotni muvofiqlashtirish muddati cho'ziladi
	Dalil yetariligi masalasi tekshiruv yakunida hal qilinadi	Dalil talablari dasturda belgilanmaydi	Qayta tekshiruv zarurati; ish qog'ozlari sifati past
Resurs	Mehnat sarfi rejadan sezilarli oshadi	Byudjet topshiriq darajasida rejalashtirilmaydi	Boshqa topshiriqlar kechikadi; yillik reja bajarilmaydi
	Maxsus bilim talab qiladigan sohalarda (IT, g'aznachilik) tekshiruv yuzaki bo'ladi	Zarur mutaxassis oldindan jalb qilinmaydi	Texnik xarakterdagi risklar aniqlanmaydi
Axborot va muloqot	Auditor ma'lumotlarni bo'linma orqali oladi	Tizimlarga mustaqil kirish huquqi rasmiylashtirilmagan	Dalil kuchi pasayadi; to'liq qamrovli testlar imkonsiz
	Hisobot xulosalari boshqaruv uchun kutilmagan bo'ladi	Topshiriq maqsadi va gipotezasi oldindan ma'lum qilinmaydi	Mudofaa reaksiyasi; tavsiyalar ijrosi sekinlashadi

To'qqizta muammoning har biri o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lsa-da, ularning bevosita sabablari bir xil tabiatga ega: topshiriq boshlanishidan oldin belgilanishi lozim bo'lgan biror parametrlar belgilanmagan. Qamrov belgilanmagani uchun u kengayadi; gipoteza ilgari surilmagani uchun tekshiruv yo'nalishsiz bo'ladi; mezon kelishilmagani uchun bahs yuzaga keladi; byudjet tuzilmagani uchun mehnat sarfi nazoratdan chiqadi; kirish huquqi rasmiylashtirilmagani uchun dalil kuchi pasayadi.

Bu muhim metodik xulosa beradi: sanab o'tilgan muammolar mustaqil emas, ular bitta umumiy manbaning turli ko'rinishlaridir. Demak, ularni alohida-alohida bartaraf etishga urinish samarasiz — talab etiladigan yechim yagona bo'lishi, ya'ni topshiriq parametrlarini uning boshlanish nuqtasida yaxlit rasmiylashtirishi kerak.

Aniqlangan umumiy manbani bartaraf etish uchun ichki audit maqsadi, qamrovi, risk gipotezasi, mezonlari, amallari, dalillari, resurslari va natijalarini belgilovchi ichki audit topshirig'i pasporti (IATP) ishlab chiqildi.

Pasport topshiriq boshlanishidan kamida o'n ish kuni oldin bosh auditor tomonidan to'ldiriladi, audit qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi va tekshirilayotgan bo'linma rahbariga yuboriladi. Topshiriq yakunlangach pasportning sakkizinchi bloki to'ldiriladi va hujjat yopiladi. Pasportga kiritiladigan har qanday o'zgarish — ayniqsa qamrovning kengayishi — yozma asoslantirishni va bosh auditor tasdig'ini talab qiladi; qamrov 25 foizdan ortiq kengaytirilganda esa masala audit qo'mitasiga chiqariladi (2-jadval).

2-jadval.

Ichki audit topshirig'i pasporti bloklarining mazmuni va vazifasi

Blok	Mazmuni	Nazorat savoli	Bartaraf etadigan muammo
1. Maqsad	Topshiriq javob berishi lozim bo'lgan bitta asosiy savol	Topshiriq yakunida bu savolga javob berildimi?	Tekshiruvning "umumiy tanishuv"ga aylanishi
2. Qamrov	Jarayon, davr, bo'linmalar, operatsiya turlari va aniq istisnalar	Qamrov jarayonda o'zgardimi va bu asoslanganmi?	Qamrovning nazoratsiz kengayishi
3. Risk gipotezasi	Tekshiriladigan taxmin: qaysi nazorat nuqsoni qanday oqibatga olib kelishi mumkin	Gipoteza tasdiqlandimi yoki rad etildimi?	Tekshiruvning yo'nalishsizligi
4. Mezonlar	Me'yoriy hujjatlar, ichki qoidalar va chegara qiymatlar ro'yxati	Xulosa qaysi mezonga nisbatan chiqarilgan?	Kamchilik ta'rifi bo'yicha bahslar
5. Amallar	Bajariladigan audit amallari, test turlari va tanlanma hajmi	Rejalashtirilgan amallarning qanchasi bajarildi?	Tekshiruv hajmining asoslanmaganligi
6. Dalillar	Har bir amal bo'yicha talab etiladigan dalil turi va manbai, kirish huquqlari	Dalillar yetarli va ishonchli bo'ldimi?	Dalil kuchining pastligi va qayta tekshiruv
7. Resurslar	Auditorlar soni va malakasi, mehnat sarfi byudjeti, jalb qilinadigan mutaxassislar	Haqiqiy mehnat sarfi rejadan qanchalik farq qildi?	Byudjetning nazoratdan chiqishi
8. Natijalar	Aniqlangan kamchiliklar, ularning bahosi, qoldiq risk va berilgan tavsiyalar	Natijalar maqsadga mos keldimi?	Hisobotning kutilmaganligi

Jadvalning o'ng ustuni pasportning uslubiy mantig'ini ochib beradi: sakkiz blokning har biri 1-jadvalda aniqlangan muayyan muammoni bartaraf etishga qaratilgan. Bu tasodifiy moslik emas — pasport tuzilmasi aynan muammolar tasnifidan kelib chiqib qurilgan.



Uchinchi blok — risk gipotezasi — pasportning eng original elementi hisoblanadi va alohida izohga muhtoj. An'anaviy tekshiruv dasturi "nimani tekshirish" degan savolga javob beradi; gipoteza esa "nimani topishni kutmoqdamiz va nima uchun" degan savolga javob beradi. Masalan, "garov qiymati belgilangan davriylikda qayta baholanmagani natijasida zaxira yetishmovchiligi yuzaga kelgan bo'lishi mumkin" degan gipoteza tekshiruvga aniq yo'nalish beradi, tekshirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar to'plamini belgilaydi va — eng muhimi — topshiriq yakunida aniq javobga ega bo'ladi: gipoteza tasdiqlandi yoki rad etildi. Ikkala natija ham qimmatli, chunki rad etilgan gipoteza ham nazorat holati to'g'risida ishonchli xulosa beradi.

Topshiriq natijadorligini o'lchash ko'rsatkichlari

Pasport topshiriqni o'lchanadigan obyektga aylantiradi. Uning ma'lumotlari asosida quyidagi besh ko'rsatkichni hisoblash va ularni choraklik hisobotga kiritish taklif etiladi.

Birinchi ko'rsatkich — qamrovning kengayish darajasi: topshiriq yakunidagi haqiqiy qamrovning pasportda belgilangan qamrovga nisbati. Bu ko'rsatkichning tizimli tarzda yuqori bo'lishi rejalashtirish sifatining pastligini bildiradi.

Ikkinchi ko'rsatkich — mehnat sarfi bo'yicha og'ish: haqiqiy va rejalashtirilgan ish kunlari farqi. U resurs rejalashtirishning realligini o'lchaydi.

Uchinchi ko'rsatkich — risk gipotezasining natijaviyligi: aniq javob (tasdiqlandi yoki rad etildi) olingan gipotezalar ulushi. Javobsiz qolgan gipoteza topshiriq maqsadiga erishilmaganini bildiradi.

To'rtinchi ko'rsatkich — rejalashtirilgan amallarning bajarilish darajasi: pasportning beshinchi blokida ko'rsatilgan amallardan bajarilganlari ulushi.

Beshinchi ko'rsatkich — topshiriq davomiyligi: pasport tasdiqlangan sanadan hisobot imzolangan sanagacha o'tgan kunlar soni.

Ushbu ko'rsatkichlarni birgalikda talqin qilish muhim. Qamrovning kengayishi va mehnat sarfi og'ishining bir vaqtda yuqori bo'lishi rejalashtirish muammosini bildiradi. Mehnat sarfi og'ishi yuqori bo'lib, qamrov o'zgarmagan holat esa ma'lumotlarga kirishdagi to'siqlarni yoki auditorlar malakasining yetishmasligini ko'rsatadi. Gipotezalarning aniq javobsiz qolishi esa metodik muammoga — gipoteza dastlab noto'g'ri shakllantirilganiga ishora qiladi.

Pasportning nazariy ahamiyati audit topshiriqini boshqariladigan loyihaga aylantirishida namoyon bo'ladi. Loyiha boshqaruvining klassik uchligi — qamrov, muddat va resurs — auditda ham amal qiladi, biroq bu uchlik odatda rasmiylashtirilmaydi. Pasport uni rasmiylashtiradi va shu bilan birga auditga xos to'rtinchi o'lchamni — dalil talabini — qo'shadi. Aynan shu to'rtinchi element pasportni oddiy loyiha ustavidan farqlaydi.

Ikkinchi nazariy natija — risk gipotezasining rasmiylashtirilishi. Gipotezani oldindan ilgari surish auditorni tekshiruv boshlangunga qadar mavjud ma'lumotlarni tahlil qilishga majbur qiladi, ya'ni analitik ishning og'irlik markazini dala ishlaridan tayyorgarlik bosqichiga siljitadi. Bu siljish tekshiruv vaqtini qisqartiradi va xulosalarning chuqurligini oshiradi.

Amaliy jihatdan pasport bir necha natija beradi. Tekshirilayotgan bo'linma topshiriq boshlanishidan oldin uning maqsadi, qamrovi va mezonlaridan xabardor bo'ladi, bu esa hisobot xulosalarining kutilmaganligini va shunga bog'liq mudofaa reaksiyasini sezilarli kamaytiradi. Qamrovni o'zgartirish rasmiy protseduraga aylanadi, bu esa uning nazoratsiz kengayishini cheklaydi. Audit qo'mitasi esa birinchi marta topshiriqlar darajasidagi ma'lumotga ega bo'ladi va ichki audit resursi qanday taqsimlanayotganini ko'ra oladi.

Pasport amaldagi talablarga zid emas, balki ularni yagona hujjatda jamlaydi. IIA standartlari topshiriq maqsadi va qamrovini belgilashni, baholash mezonlarini aniqlashni, resurslarni rejalashtirishni va ish dasturini hujjatlashtirishni talab qiladi — pasportning birinchi, ikkinchi, to'rtinchi, beshinchi va yettinchi bloklari aynan shu talablarni qoplaydi. Bazel qo'mitasining ichki auditning yetarli resurs va ma'lumotga kirish imkoniyatiga ega bo'lishi to'g'risidagi talabi pasportning oltinchi va yettinchi bloklarida rasmiylashtiriladi. Nizomning 8-band yillik rejani kengash tasdiqlashini belgilaydi — pasport reja qatorini bajariladigan topshiriqqa aylantiruvchi bo'g'in vazifasini o'taydi va shu tariqa reja bilan hisobot o'rtasidagi metodik uzilishni yopadi.

Pasportning samarali ishlashi uch shartga bog'liq. Birinchisi — qamrovni himoya qilish intizomi. Agar qamrovni o'zgartirish rasmiy protsedura talab qilmasa, pasport dastlabki niyatlar bayonnomasiga aylanadi va o'z vazifasini bajarmaydi. Ikkinchisi — audit qo'mitasining ishtiroki. Pasportni tasdiqlash rasmiy amal bo'lib qolmasligi, qo'mita a'zolari maqsad va gipotezani mazmunan muhokama qilishi lozim. Uchinchisi — gipoteza shakllantirish malakasi. Sifatli gipoteza tuzish auditorlardan jarayonni va uning risklarini oldindan tushunishni talab qiladi; buning uchun tayyorgarlik bosqichiga yetarli vaqt ajratilishi kerak.

Modelning cheklavlarini ham e'tirof etish lozim. Pasport rejalashtirish yukini oshiradi: kichik hajmdagi topshiriqlar uchun uni to'liq to'ldirish nomutanosib bo'lishi mumkin, shu sababli qisqartirilgan shakl nazarda tutilishi maqsadga muvofiq. Risk gipotezasi noto'g'ri shakllantirilganda u tekshiruvni chalqitishi mumkin — bunga qarshi vosita gipotezani rad etish natijasini teng darajada qimmatli deb hisoblashdir. Nihoyat, pasport favqulodda va tergov xarakteridagi tekshiruvlarga to'liq qo'llanilmaydi, chunki bunday tekshiruvlarda qamrov tabiatan oldindan belgilanmagan bo'ladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, ichki audit amallarining natijadorligiga ta'sir etuvchi muammolar to'rt guruhga — tashkiliy, metodik, resurs hamda axborot va muloqot muammolariga ajratiladi. Ularning har biri o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lsa-da, bevosita sabablari bir xil tabiatga ega.

Ikkinchidan, sabab-oqibat tahlili muammolarning mustaqil emasligini, ular bitta umumiy manbadan — audit topshirig'i parametrlarining uning boshlanish nuqtasida rasmiylashtirilmasligidan kelib chiqishini ko'rsatdi. Bu xulosa muammolarni alohida-alohida bartaraf etishga urinishning samarasizligini va yagona yechim zarurligini asoslaydi.

Uchinchidan, ishlab chiqilgan ichki audit topshirig'i pasporti sakkiz blokdan — maqsad, qamrov, risk gipotezasi, mezonlar, amallar, dalillar, resurslar va natijalardan iborat bo'lib, uning har bir bloki aniqlangan muayyan muammo guruhini bartaraf etishga qaratilgan. Pasportning eng original elementi risk gipotezasi bloki bo'lib, u tekshiruvga aniq yo'nalish beradi va topshiriq yakunida aniq javobga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, pasport topshiriqni o'lchanadigan obyektga aylantiradi va qamrovning kengayish darajasi, mehnat sarfi bo'yicha og'ish, risk gipotezasining natijaviyligi, amallarning bajarilish darajasi hamda topshiriq davomiyligi ko'rsatkichlarini hisoblash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 5-noyabr, O'RQ-580-son. — <https://lex.uz/docs/-4581969>
2. Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi 3/2-son qarori bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 2021-yil 7-mayda 3302-raqam bilan ro'yxatga olingan; 2026-yil 8-iyuldagi 19/14-son qarori tahririda). — <https://lex.uz/uz/docs/-5431666>
3. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida Nizom (Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyunda 3254-raqam bilan ro'yxatga olingan). — <https://lex.uz/docs/-4888804>
4. Basel Committee on Banking Supervision. The internal audit function in banks. — Basel: Bank for International Settlements, June 2012. — <https://www.bis.org/publ/bcbis223.pdf>
5. Basel Committee on Banking Supervision. Corporate governance principles for banks. — Basel: Bank for International Settlements, July 2015. — <https://www.bis.org/bcbis/publ/d328.pdf>
6. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards. — Lake Mary, FL: The IIA, January 2024 (2025-yil 9-yanvardan kuchga kirgan). — <https://www.theiia.org/en/standards/2024-standards/global-internal-audit-standards/>
7. The Institute of Internal Auditors. The IIA's Three Lines Model: An Update of the Three Lines of Defense. — Lake Mary, FL: The IIA, 2020.
8. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Internal Control — Integrated Framework. — New York: AICPA, 2013.
9. ISO 31000:2018. Risk management — Guidelines. — Geneva: International Organization for Standardization, 2018.
10. Mihret D.G., Yismaw A.W. Internal audit effectiveness: an Ethiopian public sector case study // Managerial Auditing Journal. — 2007. — Vol. 22, No. 5. — P. 470–484.
11. Arena M., Azzone G. Identifying organizational drivers of internal audit effectiveness // International Journal of Auditing. — 2009. — Vol. 13, No. 1. — P. 43–60.
12. Cohen A., Sayag G. The effectiveness of internal auditing: An empirical examination of its determinants in Israeli organisations // Australian Accounting Review. — 2010. — Vol. 20, No. 3. — P. 296–307.
13. Lenz R., Hahn U. A synthesis of empirical internal audit effectiveness literature pointing to new research opportunities // Managerial Auditing Journal. — 2015. — Vol. 30, No. 1. — P. 5–33.
14. Sarens G., De Beelde I. Internal auditors' perception about their role in risk management: A comparison between US and Belgian companies // Managerial Auditing Journal. — 2006. — Vol. 21, No. 1. — P. 63–80.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>